# SINXRON TARJIMA TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI

**Baxriddinova Elnora Umidjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu tezis ingliz tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjima jarayonida sintaktik strategiyalardan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tarjimaning lingvistik, kognitiv va madaniy xususiyatlari, sinxron tarjimaning o‘ziga xos jihatlari hamda tarjimon faoliyatida sintaktik transformatsiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik tuzilishidagi farqlar, xususan, gap bo‘laklari tartibining o‘ziga xosligi va ularning tarjima jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Sinxron tarjima jarayonida tarjimonning nutqni tinglash, tushunish, tahlil qilish va maqsad tilida qayta ifodalash kabi kognitiv faoliyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqotda sintaktik nomuvofiqliklarni bartaraf etish, mazmuniy aniqlikni saqlash va tarjimaning ravonligini ta’minlashda sintaktik strategiyalarning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinxron tarjima, sintaktik strategiyalar, ingliz tili, o‘zbek tili, sintaktik transformatsiya, gap tuzilishi, so‘z tartibi, kognitiv jarayon, tarjima sifati, lingvistik nomuvofiqlik.

This thesis focuses on the use of syntactic strategies in simultaneous interpreting from English into Uzbek. It explores the linguistic, cognitive, and cultural aspects of translation, the specific characteristics of simultaneous interpreting, and the role of syntactic transformations in the interpreting process. Particular attention is paid to the syntactic differences between English and Uzbek, especially variations in word order and sentence structure and their impact on interpreting. The study also examines the cognitive processes involved in simultaneous interpreting, including listening, comprehension, analysis, and reformulation in the target language. Furthermore, it highlights the importance of syntactic strategies in overcoming structural differences between the two languages, maintaining semantic accuracy, and ensuring fluency and coherence in the target-language output.

**Keywords:** simultaneous interpreting, syntactic strategies, English, Uzbek, syntactic transformation, sentence structure, word order, cognitive process, interpreting quality, linguistic discrepancies.

## KIRISH

Bizningcha tarjima insoniyat tarixidagi doimiy ahamiyat kasb etgan kommunikativ vosita bo’lib, u turli xil tillar va madaniyatlar o’rtasidagi muloqotni ta’minlovchi muhum bir ko’prik sanaladi. Tarjimon faqatgina so’zlarni bir tildan boshqa tilgan ko’chirmay balki undagi ma’no, stil, konteks va madaniyatni ham o’zida saqlaydi. Shu nuqtai nazardan, tarjima faoliyati nafaqat lingvistik, balki kognitiv va madaniy jarayon sifatida ham o‘rganiladi. Jumayeva[1] ning fikri bo’yicha takidlashicha aytishicha “Tarjima – bu yuksak badiiy san’at va ijoddir. Badiiy ijod esa san’atkorlikni talab etadi. Shu sababli ham ba’zan asliyat muallifiga nisbatan ko‘proq izlanish va mashaqqat chekishni taqozo etadi. Chunki, ikki tildagi tarjimonning yoki bo‘lmasa, muallifning tili, dini, madaniyati, yashash tarzi, o‘y kechinmalari birbiriga to‘g‘ri kelmaydi. Tarjima lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so‘z san’atidir. Tarjimon esa ijodkordir.Millatlar o‘rtasida o‘zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. “Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman

[1] Jumayeva,M. Sinxron tarjima va uning bugungi kunda tutgan o’rni //Academic research in modern science. – 2019 . – B. 185-192



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tillarda so‘zlashsalar ham, ammo ularning tafakkur qonunlari bir xildir”, deb yozadi tarjimashunos olim G‘aybulla Salomov[2].

Tarjima qilishning ikki shakli mavjud : og’zaki va yozma.

Yozma tarjima insoniyatning yozma tillardan foydalanishi bilan chambarchas bog‘liq. U asrlar davomida rivojlangan va turli madaniyatlar orqali shakllangan. Turli tillarda suhbatlashuvchi insonlar ortasida kelib chiqgan tushunmovchiliklar o’gzaki tarjimaning rivojlanishiga olib keldi. Ular bir-birlarini tushunish uchun topgan yechimlari tarjima bo’lgan. Bugungi kunda og‘zaki tarjimaning quyidagi asosiy ko‘rinishlari mavjud:

1. Sinxron tarjima
2. Ketma- ket tarjima
3. Shivirlab tarjima qilish

Sinxron tarjima – bu og’zaki tarjima turi hisoblanib, tarjimondan so’zlovchining nutqni deyarli bir vaqtda kerakli tilga tarjima qilishni talab qiladi. Tarjimon mahsus ovoz o’tkazmaydigan kabinalarda o’tirgan xolda so’zlovchining nutqini quloqchinlar orqali tinglab uni tinglovchilarga tarjima qiladi. Bu jarayonda tarjimon muloqotni tinglash, eslab qolish, tahlil qilish va ayni damda boshqa tilda ifodalash ishlarini sinxron ravishda amalga oshiradi. Sinxron tarjimaning murakkabligi shundaki, tarjimon grammatik, leksik va sintaktik elementlarni juda tezlikda qayta ishlashi kerak bo‘ladi. Ayniqsa, murakkab sintaktik konstruktsiyalarni o‘zbek tiliga moslashtirishda aniqlik va tabiiylik muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinxron tarjima — bu tarjimaning murakkab, yuqori darajada tezkor va ixtisoslashgan shakli bo‘lib, u nutq manbai tomonidan aytilayotgan gapni tarjimon tomonidan deyarli bir vaqtning o‘zida qabul qilinishi va maqsad tiliga og‘zaki tarzda yetkazilishini nazarda tutadi.

Xx asrga kelib savdo-sotiq, sanoat, fan sohalari jadal rivojlangan va bu xalqaro miqiyosida hamkorliklar, kelishuvlarga olib kelgan. Keskin ortib borayotgan talablarni qondirish maqsadida yangi aloqa turiga ehtiyoj sezila boshladi. Ilk marotaba sinxron tarjima 1919-yil Parijda bo’lib o’tgan tinchlik konferensiyasida qo’llanildi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida og‘zaki tarjima, xususan, sinxron tarjimaga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Ikkinchi jahon urushidan so’ng 1946-yilda bo’lgan Nyurnberg harbiy sudidan so’ng sinxron tarima butun dunyoda tan olindi. Ushbu sudda tarjimonlar ingliz, fransus , nemis var us tillariga tarjima mahsus tarjima uskunalaridan foydalanib tarjima qilishgan. O'shandan beri sinxron tarjima Birlashgan Millatlar Tashkiloti , Evropa Ittifoqi va Jahon Savdo Tashkiloti kabi yirik xalqaro tashkilotlar uchun standart usulga aylandi[3].

***Sinxron tarjima*** — bu tarjimaning murakkab, yuqori darajada tezkor va ixtisoslashgan shakli bo‘lib, u nutq manbai tomonidan aytilayotgan gapni tarjimon tomonidan deyarli bir vaqtning o‘zida qabul qilinishi va maqsad tiliga og‘zaki tarzda yetkazilishini nazarda tutadi. Sinxron tarjima og’zaki tarjimalar ichida eng murakkabi bo’lib u mahsus jihozlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Sinxron tarjima – bu notiq nutq so‘zlayotgan paytda tarjimonning uning mazmunini tinglovchilarga to‘liq va uzluksiz yetkazadigan og‘zaki tarjima usulidir. Bu jarayon maxsus uskuna va jihozlar yordamida amalga oshiriladi. Odatda sinxron tarjima kabinada yoki statsionar xonada tashkil qilinadi, unda

[2] G‘aybulla Salomov. **Tarjima nazariyasi asoslari**, -Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1983. 43-bet. 128 bet

[3] Jumayeva,M. Sinxron tarjima va uning bugungi kunda tutgan o’rni //Academic research in modern science. – 2019 . – B. 185-192



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tarjimonlar quloqlik va mikrofon yordamida ishlaydi, tinglovchilar esa quloqliklar yoki ko‘chma qabul qiluvchilar orqali tarjimani eshitadilar.

Katta konferensiyalar, seminarlar yoki prezentatsiyalar kabi tadbirlarda sinxron tarjima qo‘llaniladi. Tarjimonlar alohida xonada turib, notiqning ovozini bosib qo‘ymaslik uchun izolatsiyalovchi quloqliklar taqib ishlaydi. Tarjima ovozi maxsus ovoz kuchaytirgichlar orqali tinglovchilarga yetkaziladi.

Sinxron tarjima og‘zaki tarjimaning eng murakkab va yuqori darajali shakli hisoblanadi. So‘nggi yillarda tarjimaning ahamiyati oshib bormoqda, chunki globalizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda.

Tarjima jarayoni, oddiy qilib aytganda, ikki jihatdan tushuniladi: bir tomondan, bu manba tilidagi nutqni maqsad tilda qayta yaratish jarayoni; ikkinchi tomondan, natija sifatida maqsad tilidagi nutq hosil bo‘ladi. XX asr o‘rtalarida tarjimani ilmiy nuqtai nazardan tizimli tushunish rivojlandi, garchi tarjima faoliyati qadimgi davrlarda ham mavjud bo‘lgan.

Psixolingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, tarjima ikki yoki uch bosqichda amalga oshadi: tinglash va tushunish, tahlil qilish va lingvistik signalni idrok etish, va nihoyat yangi lingvistik signalni yaratish.

Og‘zaki tarjimaning ikki asosiy turi mavjud: ketma-ket va sinxron tarjima. Ketma-ket tarjimada tarjimon so‘zlovchi nutqini tugatgandan keyin tarjima qiladi, odatda matnni paragraflar yoki jumlalar bo‘yicha tarjima qilinadi va yozib olinishi mumkin.

Sinxron tarjimaning asosiy xususiyati – bu tarjimonning so‘zlovchi nutqini bir vaqtning o‘zida tinglab, parallel ravishda tarjima qilishidir. Aslida tarjimada kichik kechikish bo‘lishi mumkin (odatda 2–10 soniya), bu matnning murakkabligi va psixoemotsional holatga bog‘liq.

Sinxron tarjima ko‘p tilli va katta miqdordagi ishtirokchilar qatnashadigan xalqaro tadbirlarda qo‘llaniladi, masalan, konferensiyalar, uchrashuvlar, sport musobaqalari va boshqa ommaviy tadbirlar. Tadbir davomiyligi katta bo‘lganligi sababli ketma-ket tarjima bu holatda samarali emas.

Tarjima faoliyati lingvistik tadqiqotlarda markaziy o‘rin tutadi va og‘zaki tarjima uning muhim turlaridan biridir. Og‘zaki tarjimaning eng rivojlangan shakli – sinxron tarjima bo‘lib, u notiq nutqini tinglovchilarga bir vaqtning o‘zida va uzluksiz yetkazishga qaratilgan. Sinxron tarjima jarayoni nafaqat so‘zlarni tarjima qilish, balki ularning ma’no, stil va kontekstini saqlashni ham talab qiladi [4].

**Sinxron tarjimaning xususiyatlari**

1. Tarjimaning nutq bilan parallel ravishda amalga oshirilishi: tarjimon so’zlovchi nutqini bir vaqtning o’zida so’zlovchi bilan deyarli birgalikda tarjima qilinayotgan tilga ham tinglab tushungan ham tarjima qilgan xolatda bajarishi kerak.
2. Uzluksiz bajarish va minimal darajada kechikish. Nutq mazmuni tinglovchilarga uzluksiz yetkaziladi va asl matn bilan tarjima matnining orasidagi farq 2 -10 soniyadan ortmasligi zarur.
3. Maxsus texnologik jihozlar yordamida amalga oshirilishi. tarjimonlar odatda izolyatsiyalangan kabina yoki xonada ishlaydi, mikrofon va quloqliklardan foydalanadi. Tinglovchilar esa quloqlik yoki ko‘chma qabul qiluvchilar orqali tarjimani eshitadi.
4. Keng qamrovli katta auditoriyalar va xalqaro tadbirlar uchun mosligi. Sinxron tarjima ko’p tillarga tarjima qilinishi kerak bo’lgan xalqaro miqiyosidagi konferensiyalar, president yig’ilishlari, seminarlar, xalqaro uchrashuvlarda qo’llaniladi.

[4] Gile, D. (1995). Basic concepts and models for interpreter and translator training. John Benjamins.1995. – P.p 213-225, 283bet



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Yuqori konsentratsiya va professional malaka talab qilishi. Tarjimon nutqni tinglab , uni tahlil qilib , sintezlab ma’nosini uzluksiz tinglovchilarga yetkazishi kerak . Bu kuchli mahorat , lingvistik va psixologik qobiliyatni talab etadi.

6. Nutqning murakkabligi va kontekstni saqlash. Tarjima jarayonida so’zlarning ishlaritilishi, uning ma’nosi va stilistik xususiyatlari saqlangan bo’lishi lozim.

Sinxron tarjima jarayonida tarjimon nafaqat manba tilidagi nutqni eshitib, uning semantik va pragmatik qatlamlarini tushunadi, balki shu bilan birgalikda uni real vaqt rejimida maqsad tilida adekvat va mantiqan izchil shaklda ifodalaydi. Ushbu jarayon tarjimon tomonidan sintaktik, leksik va uslubiy transformatsiyalarning faol qo‘llanilishini talab etadi. Ayniqsa, til juftliklari o‘rtasidagi sintaktik nomuvofiqliklar (masalan, ingliz tilidagi so‘z tartibining qat’iyligi va o‘zbek tilining nisbatan erkinligi) tarjimada turli xil sintaktik strategiyalarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Sinxron tarjima – bu tarjimonning so‘zlovchi nutqini bir vaqtning o‘zida tinglab, parallel ravishda maqsad tilida nutq hosil qilish jarayonidir. Bunday tarjima jarayoni tarjimonda uzluksizlikka yo‘l qo‘ymaslik, mazmunni to‘liq yetkazish va stilistik xususiyatlarni saqlashga qaratilgan. Sinxron tarjima yuqori darajadagi konsentratsiya va professional malaka talab qiladi, chunki tarjimon nutqni tinglaydi, uni tezkor tahlil qiladi, lingvistik va kontekstual ma’noni idrok etadi, shundan so‘ng yangi lingvistik signalni maqsad tilida yaratadi .

Sinxron tarjima jarayonida tarjimon odatda **maxsus ovoz o‘tkazmaydigan kabinada ishlaydi va quloqchin orqali notiq nutqini tinglab, mikrofon orqali tarjimani yetkazadi**. Bunday texnik vositalar asl nutq bilan tarjima ovozining aralashib ketmasligini ta’minlaydi. Tarjimonning faoliyati global auditoriyali xalqaro konferensiyalar, seminarlar va uchrashuvlarda samarali muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjima jarayonida sintaktik strategiyalardan foydalanish tarjimaning aniqligi, ravonligi va mazmuniy muvofiqligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinxron tarjima tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik bilim, tezkor fikrlash, kuchli diqqat va kognitiv jarayonlarni bir vaqtning o‘zida boshqarish qobiliyatini talab qiladi.

Tadqiqot davomida sinxron tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari, tarjimonning nutqni tinglash, tushunish, tahlil qilish va maqsad tilida qayta ifodalash jarayonlari hamda ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik tuzilishidagi farqlar ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, ingliz tilidagi gap tuzilishi va so‘z tartibini o‘zbek tilining grammatik me’yorlariga moslashtirish tarjima jarayonining muhim jihatlaridan biri ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Jumayeva M. Sinxron tarjima va uning bugungi kunda tutgan o‘rni // *Academic Research in Modern Science*. – 2019. – B. 185–192.
2. Karimov N. *Tarjimashunoslik asoslari*. – Toshkent, 2007.
3. Musayev Q. *Tarjima nazariyasi*. – Toshkent, 2003.
4. Rahimov G‘. X. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2019. – B. 52.
5. Salomov G‘. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1983. – 128 b.
6. *O‘zbek tili grammatikasi*. 1–3-jildlar. – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi.
7. Gile, D. *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1995.
8. *Oxford Language Dictionary*. Mobil ilova.
9. Sintaksis // Wikipedia. – https://uz.wikipedia.org/wiki/Sintaksis



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.